

## ANALYSIS OF THE LITERATURE ABOUT UNCONTROLLED VIRAL DISEASE

Sabirova Iroda Khalilla qizi,  
Student of the Tashkent Branch,  
Samarkand Institute of Veterinary Medicine

### ANNOTATION

This article examines knowledge and skills about one of the incurable viral diseases – rabies - and gives some indications about it. The main purpose of the article: to call for vigilance and the ability to take the necessary measures in such situations.

**Keywords:** rabies virus, saliva, vaccine, paralysis, stray dog, incubation period.

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada davosi topilmagan virusli kasalliklardan biri bo'lgan qutirish kasalligi haqida bilim, ko'nikmalar va ayrim tavsiyalar ko'rsatilgan. Bundan asosiy maqsad odamlarni sergaklikga chaqirish va shunday holatlar kuzatilganda qilinadigan chora-tadbirlar haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** qutirish virusi, so'lak, vaksina, falajlik, daydi it, inkubatsion davr.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются знания, умения об одном из неизлечимых вирусных заболеваний - бешенстве - и даются некоторые указания о нём. Основная цель статьи: призвать к бдительности и умению принимать необходимые меры в подобных ситуациях.

**Ключевые слова:** вирус бешенства, слюна, вакцина, паралич, бродячая собака, инкубационный период.

### INTRODUCTION

Hozirgi kunda dunyo miqyosida da'vosi topilmagan kasalliklardan biri – Qutirish kasalligidir. Qutirish – neyrotrop virus ya'ni qutirish virusi (Lussa virus) qo'zg'atadigan o'tkir yuqumli zoonoz kasallik bo'lib, yovvoyi tabiatda bo'rilar, chiyabo'rilar, tulkilar va yenotsimon hayvonlarda uchraydi. Shu bilan birga daydi itlar, pashshalar, kalamush va sichqonlar kasallik manbayi bo'lib hisoblanadi. Odamlar va issiqqonli hayvonlar (yirik va mayda shoxli hayvonlar, ot, tuyay, cho'chqa, mushuk) bu kasallikga ta'sinchandir.

”Qutirish virusi lyussavirus (yunoncha lyssa – suvdan qo'rqish) 1880-yili L.Paster tomonidan kashf etilgan, kasallikning maxsus profilaktikasini ham u ishlab chiqqan. Qutirish kasalligini aynan virus qo'zg'atishini 1903-yilda P.Remlenje isbotlagan.” [1].

Virus odamga kasallangan hayvonlar tishlaganda, tirnaganda yoki jarohatlangan joyga ularning so'lagining tushishi orqali yuqadi. Masalan yosh bolalar mushuklarni yoqtirishadi, ko'chada ko'rib qolsa ham ushlashga harakat qilishadi. Bu esa noto'g'ri, chunki mushuk tirnab yoki tishlab olsa, agar u qutirish bilan kasallangan bo'lsa undan virus yuqishi mumkin. Virus

shikastlangan teri orqali asab oxirlari tomon harakatlanib markaziy nerv tizimini zararlaydi. Zararlangan bemorda qutirish kasalligi rivojlanmasligi uchun tezkor birinchi yordam berish kerak va emlash kerak. Ilmiy-statistik ma'lumotlarga qaraganda, boshqa hayvonlarga nisbatan itlar qutirish kasalligiga ko'proq moyildir. Va ular orqali yuqtirish 63 % ni tashkil qiladi.

“Ko'rshapalaklar 50 % ning so'lak bezlarida virus borligi aniqlangan.” [2.] Shuning uchun ham ko'rshapalaklarning xonadonlarga kirib qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Agar kirib qolgan bo'lsa ham ehtiyotkorlik bilan ish tutishimiz kerak. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili 59 000 kishi qutirish kasalligidan vafot etadi. Ularning 99 foizi quturgan it tishlashi oqibatida yuzaga kelgan bo'lib, bu ko'rsatkichni kamaytirishning birdan bir yo'li zudlik bilan birinchi yordam ko'rsatish va vaksinatsiya qilish.

”Shu o'rinda aytib o'tish joizki vaksina 1881-yilda Lui Paster tomonidan kashf etilgan. Va 1885-yilda vaksina it tishlab olgan bolada qo'llangan va bolada kasallik kuzatilmagan.” [3].

Hayvon tishlaganda bemorga birinchi yordam ko'rsatish.

1. Tishlangan joy tezda kir sovun yordamida yaxshilab yuviladi.
2. Spirt bilan jarohat joyi tozalaniladi.
3. Jarohat joyidan qon iloji boricha qisib chiqarib yuboriladi.
4. Yodning spirtli eritmasi, 2,5 % formalin yoki sirka surtiladi.
5. Tezda poliklinikaga olib boriladi va vaksinatsiya qilinadi.
6. Reja asosida immunoglobulin va antibiotik qilinadi.

Hayvonlarda esa kasallik belgilari quyidagicha: tajavuzkorlik, yorug'likdan qo'rqish, qorong'i joyga kirishga harakat qilish, egasi chaqirganda bormaslik, ovqatlanishdan bosh tortish, to'g'ri kelgan narsalarni yutishga harakat qilish, keyinchalik yutinish qiyinlashishi, og'zidan juda ko'p so'lak oqishi, bezota bo'lishi, tovushi bo'g'ilishi, oyoqlari yurmay qolish ya'ni falajlanish holatlari kuzatiladi. Va oxir oqibat o'lim bilan yakunlanadi.

Umuman olganda qutirishga chalingan xoh odam bo'lsin, xoh hayvon taqdiri ayanchli tugaydi. Lekin shunga qaramasdan qutirish virusi tashqi muhitda tez nobud bo'ladi. 56°C da 15 daqiqada, qaynatganda 2 daqiqada nobud bo'ladi. Shuning uchun ham agarda odam yoki hayvon qutirishdan nobud bo'lsa, jasad va unga tegishli bo'lgan ya'ni bemor tekkan hamma narsa albatta maxsus yuqori gradusli pechlarda yoqib yuboriladi. Hayvon yerda yotgan bo'lsa osha yotgan joydagi tuproqning ustki qatlami olinadi va tuproq ham yoqib yuboriladi. Tuproq olingan joyga so'ndirilmagan ohakning 2,5 % li eritmasi quyiladi. Va bu joyga hech qanday qush va hashorotlar yaqinlashmaydi. Bu bilan virus tarqalishining oldini olinadi.

Odamlarda qutirish kasalligi yuzaga kelgandagi belgi va alomatlari.

Odamlarda qutirish kasalligi alomatlari xuddi grippnikiga o'xshash bo'ladi: isitma 37°C gacha ko'tariladi, mushaklarning kuchsizlanganligi, tishlangan joyda og'riqlar va qichishish (yuqoridagi holatlar yara tuzalgan bo'lsa ham kuzatilishi mumkin). Odatda qutirish virusi odam organizmiga tushganda 4-12 kundan keyin alomatlar sezilishi mumkin. Lekin virusning yashirin davri ham mavjud bo'lib, ayrim mutaxassislarining kuzatishlariga qaraganda bu davr bir necha kundan 9 oy va undan ko'pga cho'zilishi mumkin.

Yashirin davr ilmiy tilda inkubatsion davr deyiladi. Inkubatsion davr – tishlangandan boshlab virus markaziy nerv sistemasini zaralagunga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Va tabiiyki

har bir odamda bu aynan nimadan keyin yuzaga chiqadi degan savol tug'ilishi mumkin. Ayrim mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra organizmida qutirish kasalligining klinik belgilari yuzaga chiqa boshlaganda odam suyuqliklardan, turli xil stresli tashqi ta'sirdan qorqadi. Lekin ko'pincha qutirgan odamda birinchi belgi sifatida kuzatiladigani avvalo uning suvdan qo'rqishidir, ya'ni unda gidrofobiya kuzatiladi. Tana muskullarida asosan yutinish muskullarida titroq yuzaga keladi. Bemor yutinishga xattoki nafas olishga ham qiynaladi. Og'zidan ko'pik keladi. Bundan tashqari bemorda kasallikning boshlang'ich davrida yorug'likdan qo'rqish natijasida tutqanoq kuzatiladi. Bemor avval tajavuzkor bo'lib qoladi va keyin asta sekin falajlik kuzatiladi.

"Kasallik markaziy nerv sistemasini zararlashni davom etishi bilan ikki xil turda rivojlanishi mumkin. Bular agressiv va tinch qutirish turlaridir.

Agressiv qutirish turida bemorda haddan tashqari agressiya va harakatchanlik kuzatiladi. Ya'ni, uyqusizlik, bezovtalik, tartibsizlik, tashviqot, gallyutsinatsiyalar, ko'p so'lak oqishi, yutinishga qiynalish, suvdan qo'rqish.

Falajli yohud tinch qutirish turida bemor asta sekin falajlana boradi, komaga tushadi va oxir oqibat o'ladi. Bu holat uzoq vaqtga cho'ziladi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra qutirishning 30 % hollarida falajlik kuzatiladi." [4.].

Qutirish juda xavfli kasallik bo'lib haligacha da'vosi topilmagan. Faqatgina bu kasallikning oldini olishimiz ya'ni odamni hayvon tishlab olgan paytda birinchi tez yordam ko'rsatib vaksinatsiya qilishimiz mumkin. Lekin ba'zi hollarda vaksina foyda bermaydi. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda dunyo bo'yicha qutirishga qarshi kurashiladi va Butunjahon qutirishga qarshi kurashish kuni (World Rabies Day) ham belgilangan bo'lib bu kun har yili 28-sentabr kuni nishonlanadi. Va albatta bu BMT ning Xalqaro kunlar ro'yxatiga kiritilgan. Aynan 28-sentabr bo'lishi Lui Pasterning o'limi bilan bog'liqdir.

### **XULOSA QILADIGAN BO'LSAK**

Dunyoda bundanda boshqa davosi topilmagan kasalliklar ko'p, lekin biz odamlar birlashib ularga qarshi kurashamiz. Aslida kurashish qiyin emas, shunchaki barcha odamlar o'zlariga va tashqi muhitiga e'tiborli bo'lmog'i lozim. Masalan qutirish kasalligi misolida qaraydigan bo'lsak, asosan kasallik tarqatuvchisi bo'lgan kemiruvchilar (kalamush sichqon), yovvoyi hayvonlar (shag'ol, tulki va boshqalar) va ayniqsa daydi itlarning ko'chalarda kezishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Uy hayvonlarini o'z vaqtida qutirish kasalligiga qarshi emlash tadbirlarini olib borish va daydi itlarni yo'qotish chora – tadbirlarini ko'rishimiz kerak. Shuning uchun kasallikni davolashdan ko'ra oldini olish afzaldir degan naqlni esdan chiqarmasligimiz kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- 1.I.Muhammedov, E.Eshboyev, N.Zokirov, M.Zokirov ning "Mikrobiologiya, Immunologiya, Virusologiya" "Yangi asr avlodi" NMM, Toshkent 2006-yil.
- 2.X.S.Salimov, A.Kambarov. Epizootologiya Toshkent 2016-yil.
- 3.П.Ф.Сосов. Общая эпизоотология Москва 1974.
- 4.V.M. Jdayev, S.Ya.Gaydageovich.Virusologiya Moskva 1966-yil.
- 5.Internet tarmog'idan. <https://uz.m.wikipedia.or>
- 6.S.Yu.Kurbanova Mikrobiologiya va Immunologiya "Tafakkur bo'stoni" Toshkent- 2015.